BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XAMROYEVA FERUZA ASROROVNA

XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K 37: 378.245(575.1)

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора педагогических наук (DSc)

Content of the abstract of doctoral dissertation (DSc) in pedagogy

Xamroyeva Feruza Asrorovna
Xorijiy tajriba asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 3

Хамроева Феруза Асроровна
Совершенствование методики развития исследовательских навыков будущих учителей на основе зарубежного опыта 31

Khamroeva Feruza Asrorovna
Improving the methodology for developing research skills in future teachers based on international experience 63

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....73

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XAMROYEVA FERUZA ASROROVNA

XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.DSc/Ped1535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdpi.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Ibragimov A’lamjon Amrilloyevich** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Saidova Mohinur Jonpo‘latovna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Olimov Shirinboy Sharofovich pedagogika fanlari doktori, professor
	Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “19” noyabr soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahri, Piridastgir ko‘chasi, 2-uy.) Tel.: (365) 226-10-96; faks: (365) 226-10-96; e-mail: (buxdpi@buxdpi.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (45 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200100, Buxoro shahri, Piridastgir ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (365) 226-10-96

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «4» noyabr da tarqatildi.

(2026-yil «4» noyabr dagi 47 raqamli reyestr bayonnomasi).

B.B.Ma’murov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

G.R.Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc), professor

M.M.Bafayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, ps.f.d.(DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ilmiy izlanish bilan uyg‘unlashtiruvchi dasturlar, texnologiyalar amaliyotga tizimli tatbiq etilmoqda. Jumladan, Finlandiyaning Helsinki universitetida STEP dasturi doirasidagi “O‘qituvchi tadqiqotchi sifatida” [1] kursi pedagogik amaliyotni refleksiya bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etilishi nazariy bilimlarni real ta’limiy vaziyatlarni o‘rganishga tatbiq etish, pedagogik muammoni ilmiy savolga aylantirish, dalillarning ishonchliligini tekshirish va asoslangan kasbiy xulosa chiqarishni bo‘lajak pedagog tayyorgarligining muhim tarkibiy qismiga aylantirmoqda. Shu bois jahon pedagogik ta’limida ilmiy izlanishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, tadqiqot jarayonida pedagogik ko‘makni kamaytirib borish hamda natijalarni tanqidiy baholashni o‘quv jarayoniga integratsiyalash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik tayyorgarligiga oid ilmiy izlanishlarda tadqiqiy tafakkur, noaniqlikka bardoshlilik, muqobil izohlarni qiyoslash va yangi ma’lumotga oid dastlabki qarashlarini qayta ko‘rib chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ilmiy muammoga ongli munosabatni ifodalovchi tadqiqotchi pozitsiyasini shakllantirish masalalari o‘rganilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarda izlanish natijalari bilan bir qatorda ularga erishish jarayonini baholash, talabaning metodologik bilimlari, tadqiqot dizaynini tanlash layoqati va ilmiy xulosalar uchun mas’uliyatini birlashtiruvchi tadqiqotchilik kompetensiyasini takomillashtirishga e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv tarkibiy qismlarning o‘zaro ta’sirini aniqlash, tadqiqotchilik ko‘nikmalarining turli fanlar hamda kasbiy vaziyatlarga ko‘chirilishini ta’minlovchi metodik mexanizmlarni asoslash va rivojlanish dinamikasini ishonchli diagnostika qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarurati ortib bormoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlashni yangilash, oliy ta’limda ilmiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan islohotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik tayyorgarligini kuchaytirishga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Ta’limda “sifatni yangi bosqichga olib chiqadigan ilg‘or xorijiy tajribalarni keng joriy etish”[2] vazifasi sohaga doir ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatilishi pedagogik yechimlarni qiyosiy o‘rganish, ularning qo‘llanish shartlarini aniqlash va natijadorligini tekshirishga qaratilgan izlanishlarning ahamiyatini kuchaytiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish bo‘lajak o‘qituvchilarni xorijiy tajribani asosli tanlash, mahalliy o‘quv sharoitlariga mos metodik ishlanmalar yaratish va ularni minitadqiqotlar orqali sinovdan o‘tkazishga tayyorlashni taqozo etib, tadqiqotchilik

[1] University of Helsinki. Subject Teacher Education Programme in English (STEP). Structure and Content of Studies [Elektron manba]. – URL: https://studies.helsinki.fi/instructions/article/subject-teacher-education-programme-english-step

[2] Mirziyoyev Sh. M. Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnoma. — 2025-yil, 26-dekabr.

ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirishni dolzarb pedagogik zaruratga aylantirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PF–134-son “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2025-yil 28-apreldagi PF–73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ–289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 28-apreldagi PQ–152-son “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda ushbu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[3]**.** Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish, tadqiqiy tafakkuri va ilmiy izlanishga munosabatini shakllantirish, metodologik tayyorgarligini pedagogik amaliyot bilan uyg‘unlashtirish hamda tadqiqotchilik kompetensiyasini takomillashtirishga oid fundamental va amaliy tadqiqotlar dunyoning bir qator oliy ta’lim muassasalarida, xususan, Xelsinki va Abo Akademi universitetlari (Finlandiya), Vena universiteti (Avstriya), Karl fon Ossiyetski nomidagi Oldenburg universiteti (Germaniya) hamda De La Salle universitetida (Filippin) olib borilmoqda.

Jahonda bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar doirasida qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilgan, xususan, ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanish, mustaqil izlanish olib borish va metodik qarorlarni asoslashning kasbiy faoliyatdagi o‘rni aniqlangan (Xelsinki universiteti, Finlandiya); ilmiy yozuv, tadqiqotchilik kompetensiyasi, tanqidiy-tahliliy tafakkur va uzluksiz kasbiy o‘rganish tadqiqotga asoslangan

[3] Consuming, producing, and justifying: Finnish student teachers’ views of research methods. https://doi.org/10.1080/1743727X.2020.1737003; The goal of research-based learning in teacher education: Norwegian and Finnish teacher educators’ perspectives. https://doi.org/10.1080/2331186X.2025.2465918; Research-based learning and the development of an inquiry habit of mind in teacher education: A systematic literature review. https://doi.org/10.1007/s35834-025-00526-0; Inquiry-Based Learning in Teacher Training. https://doi.org/10.1007/978-3-030-14223-0_12; Pre-service teachers’ reflection on their efficacy beliefs in conducting action research. https://doi.org/10.1080/14623943.2021.2014312.

pedagogik tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlari sifatida tizimlashtirilgan (Abo Akademi universiteti, Finlandiya); 47 ta empirik tadqiqotning tizimli tahlili natijasida tadqiqotga asoslangan ta’limning muammoni chuqur anglash, noaniqlikka bardoshlilik, turli nuqtayi nazarlarni hisobga olish va izchil savol qo‘yish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari umumlashtirilgan (Vena universiteti, Avstriya); talabalarning izlanish faoliyatini tadqiqot metodologiyasi mashg‘ulotlari va maktab amaliyoti bilan uyg‘unlashtirishning tashkiliy-metodik asoslari ishlab chiqilgan (Karl fon Ossiyetski nomidagi Oldenburg universiteti, Germaniya); amaliy tadqiqot jarayonidagi avvalgi muvaffaqiyatlar, hamkorlik tajribasi va hissiy kechinmalar bilan bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z tadqiqotchilik imkoniyatlariga ishonchi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan (De La Salle universiteti, Filippin).

Xorijiy tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir alohida jihatlar, ya’ni research-based learning, inquiry-based learning, action research, Lesson Study, collaborative research, evidence-informed practice va refleksiv faoliyat imkoniyatlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, mazkur ko‘nikmalarni yagona integrativ pedagogik konstruksiya sifatida belgilash, uning tarkibiy komponentlari, rivojlanish bosqichlari, baholash mezonlari va indikatorlarini aniqlash hamda o‘qituvchilar tayyorlash jarayoniga tatbiq etishning metodik mexanizmlarini yaxlit tizimda uyg‘unlashtirish masalasi milliy ta’lim sharoitida yanada chuqur ilmiy asoslashni talab etadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda talaba va bo‘lajak o‘qituvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash va yo‘naltirish, tadqiqotchilik ko‘nikmalari hamda kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish, o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish hamda uning metodik va didaktik ta’minotini takomillashtirish masalalari S.Allayarova, I.Asqarov, N.Rajabova, J.Turmatov, I.Ruzimova, N.Narziyeva, K.Suyarov, U.Usmanova, L.M.Qaraxonova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, talaba va o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash, loyihalash faoliyatini va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyatini rivojlantirish masalalari A.Ibragimov, B.Xodjayev, N.Ataqulova, M.Irisbayeva, A.Raximov, I.Rasulov, O.Maxmanov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Ta’lim jarayonida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish, ularda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish, ilmiy izlanish faoliyatini tashkil etish hamda rivojlantirish masalalari MDH olimlaridan T.Avgustmonova, O.Bayzulaeva, V.Vlasova, E.Girfanova, I.Danilova, I.Zimnyaya, E.Shashenkova, T.Zlidneva, M.Klarin, V.Klochkov, S.Dodueva, E.Bogoduxova, L.Landau, E.Lifshits, A.Leontev, A.Mazaletskaya, N.Nikandrov, G.Nikolaenko, V.Polonskiy, O.Prokazova, S.Reyzvix, D.Feldshteyn, A.Xutorskoy, V.Shadrikov, I.Yakimanskaya va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan J.Dewey (John Dewey), J.Bruner (Jerome Bruner), J.Piaget (Jean Piaget), L.Vygotsky (Lev Vygotsky), J.Biggs (John Biggs), K.Collis (Kevin Collis), A.Brew (Angela Brew), M.Healey (Mick Healey), A.Jenkins (Alan Jenkins), R.Bybee (Rodger Bybee), E.Deci (Edward Deci), R.Ryan (Richard Ryan), J.Willison (John Willison), K.O‘Regan (Kerry O‘Regan),

R.Sternberg (Robert Sternberg), B.Joyce (Bruce Joyce), M.Weil (Marsha Weil), L.Shulman (Lee Shulman), D.Schön (Donald Schön), P.Ramsden (Paul Ramsden), P.Sahlberg (Pasi Sahlberg), R.Marzano (Robert Marzano) va boshqalarning ilmiy ishlarida ta’lim oluvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirish, tadqiqotga asoslangan ta’limni tashkil etish, refleksiv fikrlashni rivojlantirish, mustaqil o‘rganish faoliyatini shakllantirish hamda tadqiqotchilik ko‘nikmasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid ishlar mavjud bo‘lsa-da, mazkur ko‘nikmalarni tizimli rivojlantirish, ta’lim jarayoni bilan integratsiyalash, mustaqil izlanish, refleksiv fikrlash va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini o‘zaro uyg‘un holda shakllantirishga qaratilgan yaxlit metodik tizim yetarlicha ishlab chiqilmagan. Xorijiy tajribani tahlil qilish va uni milliy pedagogik ta’lim sharoitiga moslashtirish asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik yechimlarini ishlab chiqish masalalari ham to‘liq yoritilmagan. Bu esa xorijiy tajriba asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Pedagogika sohasidagi hududiy ta’lim muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tadqiqotlarni raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt imkoniyatlari, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni integratsiyalash vositasida rivojlantirish hamda takomillashtirish” (2022-2026 yillar) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xorijiy tajriba asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili asosida aniqlashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning integrallashgan modelini IBL, Engaging Learning, BSCS 5E va RSD integratsiyasi asosida takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmunini autentik tadqiqot, dalillarga asoslangan pedagogik qarorlar, hamkorlikdagi ilmiy izlanish va refleksiv amaliyot asosida takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini minitadqiqot sikli, SPARK va TRACE metodlari hamda raqamli monitoring mexanizmlarini majmuaviy qo‘llash asosida takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik ta’minot samaradorligini mezon va ko‘rsatkichlar hamda matematik-statistik tahlil asosida aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga

Samarqand, Buxoro, Termiz davlat pedagogika institutlari hamda Jizzax davlat pedagogika universitetining jami 787 nafar talabasi jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini xorijiy tajriba asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasining mazmuni, vositalari, shakllari va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida me’yoriy hujjatlar, ilmiy hamda o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, tashxislash, suhbat, so‘rovnoma, test, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov hamda matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodologik-tadqiqot va amaliy-transformativ didaktik imkoniyatlari o‘quvchilarning o‘zlashtirishidagi qiyinchiliklar sababini o‘rganish va asoslangan kasbiy qaror qabul qilish ehtiyojidan kelib chiqib, xorijiy tajriba tahlilida izlanishni loyihalash bilan uning natijasini dars amaliyotiga tatbiq etish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish hamda ushbu yo‘nalishlarning milliy ta’lim sharoitida qo‘llanish shartlarini belgilash orqali aniqlashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning integrallashgan pedagogik modeli minitadqiqot topshiriqlarini talabaning mavjud bilim va ko‘nikmalariga muvofiqlashtirish uchun IBLning savol–dalil–xulosa mantig‘i, BSCS 5Ening didaktik bosqichlari va RSDning izlanish harakatlarini o‘zaro bog‘lash, diagnostika natijalariga ko‘ra navbatdagi vazifani belgilash hamda aniqlangan qiyinchiliklarga mos metodik tavsiyalar berishni ta’minlovchi qayta aloqa mexanizmi asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni o‘zlashtirilgan bilimlarni kasbiy muammolarni hal etishga yo‘naltirish maqsadida, geografiya, biologiya, tarix va pedagogika fanlariga mos autentik topshiriqlar doirasida talaba tayyorlagan dars topshirig‘i, mashqlar to‘plami yoki mashg‘ulot rejasini amaliyotda sinovdan o‘tkazish, empirik dalillarning ishonchliligini baholash hamda aniqlangan kamchiliklarga ko‘ra ushbu materiallarning mazmuni va qo‘llash tartibiga tuzatish kiritish faoliyatlarini uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi muammoni belgilash, manbalar bilan ishlash va ilmiy rahbar bilan hamkorlikni izchil tashkil etishga qaratilib, SPARK yordamida pedagogik vaziyatni tekshiriladigan savolga aylantirish, TRACE vositasida axborotni qiyoslash va xulosani dalillash hamda mualliflik “Tadqiqotmaktabi.uz” platformasida topshiriqlar bajarilishini kuzatish, muhokama va qayta aloqani yagona minitadqiqot jarayoniga birlashtirish asosida ishlab chiqilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik ta’minot samaradorligi bilimlarni amaliy izlanishda qo‘llash sifatini tekshirish uchun motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv-baholash mezonlari bo‘yicha boshlang‘ich hamda yakuniy ko‘rsatkichlarni aniqlash, tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘zgarishlarni qiyoslash orqali baholanib, matematik-statistik tahlil bilan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o‘z aksini topgan:

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari va xorijiy tajribasi umumlashtirilgan “Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish: xorijiy davlatlar tajribasi” nomli monografiya nashr etilgan (ISBN 978-9910-611-77-3);

bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, topshiriqlar bajarilishini monitoring qilish, ilmiy muloqotni yo‘lga qo‘yish va tadqiqot natijalarini tahlil qilishga mo‘ljallangan “Tadqiqotmaktabi.uz” elektron platformasi yaratilgan (№ DGU 56070, 2025-yil 6-noyabr);

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan minitadqiqot sikli, uning muammoli vaziyatni shakllantirish jarayonida SPARK va ilmiy axborotni tahlil qilish jarayonida TRACE metodlarini qo‘llashga asoslangan metodikasi ishlab chiqilgan;

oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarining bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir metodik tayyorgarligini oshirishga yo‘naltirilgan “Fanlararo STEAM ta’limi: mentorlar uchun zamonaviy tayyorlov kursi” o‘quv-mavzu rejasi va dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu kurs professor-o‘qituvchilarning mentor-fasilitatorlik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularni talabalarda tadqiqotchilik, kreativlik va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlashga qaratilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-tadqiqot faoliyatini loyihalash, izlanishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish, tadqiqot natijalarini mezonlar asosida tahliliy baholash hamda refleksiv faoliyatni tashkil etishga mo‘ljallangan ilmiy-metodik tavsiyalar majmuasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma’lumotlar, qo‘llanilgan ilmiy yondashuvlar, tadqiqot usullarining maqsadga muvofiq tanlanganligi, foydalanilgan ma’lumotlarning ishonchli va rasmiy manbalarga asoslanganligi, ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalarga tayanilganligi, olingan natijalarning pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilganligi, ularning samaradorligi matematik-statistik metodlar yordamida tasdiqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari, didaktik imkoniyatlari, ichki (motivatsion, kognitiv) va tashqi (metodik ta’minot, ilmiy rahbarlik, raqamli va institutsional muhit) omillarining o‘zaro tizimli bog‘liqligi, “inquiry-based learning”, “engaging learning”, “BSCS 5E” va “RSD” yondashuvlari integratsiyasiga asoslangan modelning strukturaviy-komponentli va funksional mazmuni, tadqiqotchilik faoliyatini ta’lim jarayoniga integratsiyalashning pedagogik xususiyatlari, minitadqiqot sikli (muammo qo‘yish, gipoteza shakllantirish, tahlil, natijani taqdim etish va refleksiya) asosidagi metodik yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalar tizimini aniqlashtirishga doir nazariy xulosalar bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati erishilgan natijalar, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar, model va metodikalardan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini

rivojlantirish, ta’lim jarayonini muammoli, loyiha-tadqiqot, munozaraga asoslangan faoliyatlar asosida tashkil etish, SPARK va TRACE interfaol metodlari yordamida minitadqiqot faoliyatini yo‘lga qo‘yish, raqamli pedagogik muhitda tadqiqot faoliyatini tashkil etish, monitoring qilish va natijalarni tahlil etish, o‘quv-uslubiy materiallar va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish hamda ta’lim amaliyotiga joriy etish, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish va ularning ilmiy faoliyatga yo‘naltirilganligini kuchaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodologik-tadqiqot va amaliy-transformativ didaktik imkoniyatlari o‘quvchilarning o‘zlashtirishidagi qiyinchiliklar sababini o‘rganish va asoslangan kasbiy qaror qabul qilish ehtiyojidan kelib chiqib, xorijiy tajriba tahlilida izlanishni loyihalash bilan uning natijasini dars amaliyotiga tatbiq etish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish hamda ushbu yo‘nalishlarning milliy ta’lim sharoitida qo‘llanish shartlarini belgilash asosida aniqlashtirishga doir ilmiy-metodik takliflardan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 24-apreldagi 02/01-01-303-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilar o‘zlashtirishidagi qiyinchiliklar sabablarini o‘rganish, pedagogik muammoni aniqlash, izlanishni loyihalash va olingan dalillar asosida kasbiy qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan o‘quv-tadqiqot faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning integrallashgan pedagogik modeli minitadqiqot topshiriqlarini talabaning mavjud bilim va ko‘nikmalariga muvofiqlashtirish uchun IBLning savol–dalil–xulosa mantig‘i, BSCS 5Ening didaktik bosqichlari va RSDning izlanish harakatlarini o‘zaro bog‘lash, diagnostika natijalariga ko‘ra navbatdagi vazifani belgilash hamda aniqlangan qiyinchiliklarga mos metodik tavsiyalar berishni ta’minlovchi qayta aloqa mexanizmi asosida takomillashtirishga doir ilmiy-metodik takliflardan “Pedagogik texnologiya” darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 10-iyundagi 2717-son ma’lumotnomasi). Natijada minitadqiqot topshiriqlarini talabalarning mavjud bilim va ko‘nikmalariga moslashtirish, izlanish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, diagnostika natijalariga asoslangan navbatdagi vazifalarni belgilash va qayta aloqani ta’minlash imkoniyati yaratilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni o‘zlashtirilgan bilimlarni kasbiy muammolarni hal etishga yo‘naltirish maqsadida, geografiya, biologiya, tarix va pedagogika fanlariga mos autentik topshiriqlar doirasida talaba tayyorlagan dars topshirig‘i, mashqlar to‘plami yoki mashg‘ulot rejasini amaliyotda sinovdan o‘tkazish, empirik dalillarning ishonchliligini baholash hamda aniqlangan kamchiliklarga ko‘ra ushbu materiallarning mazmuni va qo‘llash tartibiga tuzatish kiritish faoliyatlarini uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirishga doir ilmiy-metodik takliflardan “Pedagogik texnologiya”

darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 10-iyundagi 2717-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlashtirilgan bilimlarini kasbiy muammolarni hal etishda qo‘llashi, ishlab chiqilgan o‘quv materiallarini amaliyotda sinovdan o‘tkazishi, empirik natijalarni baholashi hamda aniqlangan kamchiliklar asosida ularni takomillashtirish imkoniyati yaratilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi muammoni belgilash, manbalar bilan ishlash va ilmiy rahbar bilan hamkorlikni izchil tashkil etishga qaratilib, SPARK yordamida pedagogik vaziyatni tekshiriladigan savolga aylantirish, TRACE vositasida axborotni qiyoslash va xulosani dalillash hamda mualliflik “Tadqiqotmaktabi.uz” platformasida topshiriqlar bajarilishini kuzatish, muhokama va qayta aloqani yagona minitadqiqot jarayoniga birlashtirish asosida ishlab chiqishga doir ilmiy-metodik taklif va tavsiyalardan IL-662204257 – “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1–2-sinflari uchun “Tabiiy fanlar (Science)” fanidan multimediali dasturiy mahsulot yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2026-yil 14-sentabrdagi 01-09/600-son ma’lumotnomasi). Natijada pedagogik vaziyatni muammoli savolga aylantirish, axborot manbalarini qiyosiy tahlil qilish, xulosalarni dalillash, topshiriqlar bajarilishini kuzatish hamda tezkor qayta aloqani tashkil etishga yo‘naltirilgan metodik imkoniyatlar kengaytirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik ta’minot samaradorligini motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv-baholash mezonlari bo‘yicha boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlarni aniqlash, tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘zgarishlarni qiyoslash hamda natijalarni matematik-statistik tahlil qilish asosida baholashga doir ilmiy-amaliy natijalardan “FM 105.2 Samarqand” radiokanalining “Radiointervyu” eshittirishi materiallarini tayyorlashda foydalanilgan (“Samarqand viloyati teleradiokanali” DMning 2026-yil 7-sentabrdagi 01-07/318-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasini mezon va ko‘rsatkichlar asosida baholash, tajriba-sinov natijalarini qiyosiy tahlil qilish hamda ilmiy-metodik ta’minot samaradorligini matematik-statistik jihatdan asoslashga doir yondashuvlarni pedagogik jamoatchilik orasida ommalashtirish imkoniyati yaratilgan**.**

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 217 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, bu borada amalga oshirilgan hamda davom etayotgan xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhlangan, tadqiqot ishining maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlari hamda dissertatsiya tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish psixologik-pedagogik muammo sifatida tadqiq etilgan, shu jarayonni izohlovchi zamonaviy psixologik va pedagogik nazariyalar tizimlashtirilgan, ijtimoiy-institutsional omillar aniqlashtirilgan, uning samaradorligiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar belgilangan hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatining bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashdagi didaktik imkoniyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarining izchil rivojlanishi oliy ta’limda ta’lim, fan va amaliyot integratsiyasini ta’minlashni talab etadi. Tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti, refleksiv fikrlashni rivojlantirish, muammoli o‘qitish hamda ilmiy izlanish faoliyatini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish mazkur ko‘nikmalarni rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi.

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarining rivojlanishi talabaning ilmiy faoliyatga jalb etilganligi bilangina belgilanmaydi. Jarayonning samaradorligi tadqiqotga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqish, ichki motivatsiya, o‘z imkoniyatlariga ishonch, tanqidiy va kreativ fikrlash, refleksiya singari psixologik mexanizmlarning ta’lim muhiti bilan qanday uyg‘unlashtirilishiga bog‘liq. Bunda talabaning tadqiqotga qiziqishi faol bilish ehtiyojiga aylanishi, muammoni mustaqil aniqlashi, o‘z qarorini asoslay olishi va erishilgan natijani qayta baholashi uchun tegishli pedagogik sharoit yaratilishi alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarining rivojlanishini faqat shaxsning tabiiy qobiliyati yoki alohida o‘quv metodining natijasi bilan izohlash yetarli bo‘lmay, shaxsning ichki imkoniyatlari bilan maqsadli pedagogik ta’sirning o‘zaro munosabatini hisobga olish zarur.

Pedagogik nazariyalar talabaning ichki psixologik imkoniyatlarini real ilmiy-tadqiqot harakatlariga aylantirish mexanizmlarini ochib beradi. Nazariy tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu jarayonda o‘qituvchining kasbiy pozitsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. R.M.Harden va J.R.Crosby tomonidan asoslangan o‘qituvchining ko‘p qirrali kasbiy rollari, L.S.Shulmanning pedagogik kontent bilimi konsepsiyasi hamda C.Danielsonning o‘qituvchi faoliyatini refleksiv takomillashtirishga yo‘naltirilgan qarashlarini tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan umumlashtirish asosida o‘qituvchining transformatsion roli bo‘yicha mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi. Bu yondashuv o‘qituvchining transformatsion faoliyatini bilim integratori, ko‘p qirrali pedagogik rol egasi va reflektiv amaliyotchi sifatidagi o‘zaro bog‘liq funksiyalar orqali tavsiflash imkonini berdi (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qituvchining transformatsion roli

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi bevosita pedagogik munosabat bilangina cheklanmaydi. Ilmiy madaniyat, akademik hamkorlik, ilmiy rahbarlik va mentorlik, ilmiy axborot resurslariga kirish imkoniyati, raqamli infratuzilma va tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti mazkur jarayonning ijtimoiy-institutsional asoslarini tashkil etadi. Shu bois tadqiqotchilik ko‘nikmalarining rivojlanishi psixologik, pedagogik va ijtimoiy-institutsional omillarning o‘zaro ta’siriga asoslangan ko‘p omilli pedagogik jarayon sifatida tavsiflandi. Psixologik omillar talabaning ilmiy faoliyatga kirishishi uchun zarur motivatsion-kognitiv resurslarni yuzaga keltirsa, pedagogik va institutsional omillar ushbu resurslarning real faoliyatda namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratadi.

Tahlillar tadqiqotchilik ko‘nikmalariga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda ichki va tashqi guruhlarga ajratish imkonini berdi. Ichki omillar motivatsiya, bilishga ehtiyoj, tadqiqotga qiziqish, tanqidiy va kreativ fikrlash, o‘ziga ishonch, mustaqillik va refleksiyani qamrab oladi. Tashqi omillar esa o‘quv mazmunining tadqiqotga yo‘naltirilganligi, pedagogik va metodik ta’minot, ilmiy rahbarlik sifati, tadqiqot xarakteridagi topshiriqlar, raqamli va ilmiy axborot resurslari, akademik hamkorlik, baholash va rivojlantiruvchi qayta aloqa bilan bog‘liq. Bunda ichki va tashqi omillarni bir yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatuvchi mustaqil omillar sifatida emas, balki o‘zaro ta’sir qiluvchi tizim sifatida tushunish muhimdir. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish shaxsning ayrim sifatlarini alohida shakllantirish emas, balki talabaning ichki imkoniyatlari va ta’lim muhitining o‘zaro ta’sirini pedagogik jihatdan boshqarish jarayoni sifatida qaraldi. Tadqiqotga yo‘naltirilgan mazmun, topshiriqning murakkabligini bosqichma-

bosqich oshirish, ilmiy rahbarlik, resurslar, mustaqil faoliyat, mezonli baholash va refleksiyaning o‘zaro muvofiqligi ushbu jarayonning samaradorligini ta’minlovchi muhim pedagogik asos sifatida belgilandi.

Aniqlangan ichki va tashqi omillarning pedagogik jarayonda qanday imkoniyatlar orqali ro‘yobga chiqishini belgilash ilmiy-tadqiqot faoliyatining bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligidagi didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirishni talab etdi. Shu maqsadda Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur, AQSh va Rossiyada bo‘lajak o‘qituvchilarni ilmiy izlanishga jalb etish tajribalari qiyosiy o‘rganildi. Tahlillar mazkur davlatlarda o‘qituvchi tayyorlashning tashkiliy shakllari va ta’lim tizimlari o‘ziga xos bo‘lsa-da, talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etishda bir qator umumiy didaktik mexanizmlar mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan, tadqiqot metodologiyasining o‘quv rejasiga maxsus kurs yoki fan mazmuniga singdirilgan modul sifatida kiritilishi, talabaning real pedagogik muammoni empirik dalillar asosida o‘rganishga jalb etilishi, ilmiy rahbar, mentor, laboratoriya va tadqiqot markazlari orqali qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratilishi, olingan natijalarning ilmiy mahsulot, loyiha, dissertatsiya yoki taqdimot shaklida rasmiylashtirilishi hamda tadqiqot xulosalarining pedagogik amaliyotga qaytarilib, refleksiya va takomillashtirish siklini yuzaga keltirishi umumiy tendensiya sifatida namoyon bo‘ldi.

Ushbu qiyosiy tahlil ilmiy-tadqiqot faoliyatini bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligiga tashqi qo‘shimcha sifatida emas, nazariy bilim, ilmiy izlanish va pedagogik amaliyotni bog‘lovchi didaktik mexanizm sifatida qarash zarurligini ko‘rsatdi. Bunda talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi pozitsiyadan bilimni izlash, tekshirish, asoslash va yangi vaziyatga tatbiq etishga qodir faol bilish subyekti pozitsiyasiga o‘tadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyati mazkur jarayonning tashkiliy va mazmuniy asosini tashkil etsa, tadqiqotchilik ko‘nikmalari ushbu faoliyat davomida egallanadigan amaliy-intellektual harakatlarni ifodalaydi.

Nazariy va qiyosiy tahlillar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda ilmiy-tadqiqot faoliyatining didaktik imkoniyatlari talabaning bilish faoliyati, metodologik tayyorgarligi, kasbiy amaliyoti, refleksiyasi, ilmiy kommunikatsiyasi hamda raqamli-ilmiy savodxonligiga ta’siri asosida tizimlashtirildi. Natijada ushbu imkoniyatlar kognitiv-analitik, metodologik-tadqiqot, amaliy-transformativ, refleksiv-baholash, kommunikativ-akademik, innovatsion-raqamli va vizual-interpretativ yo‘nalishlarda ifodalandi (2-rasm).

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini bo‘lajak o‘qituvchining alohida ilmiy topshiriqni bajarishga oid malakasi emas, balki pedagogik muammoni anglashdan boshlab dalil to‘plash, ilmiy tahlil, metodologik qaror, asoslangan xulosa, ilmiy kommunikatsiya va refleksiyagacha bo‘lgan harakatlarni mustaqil amalga oshirish imkonini beruvchi integrativ kasbiy ko‘nikma sifatida qarashga asos bo‘ldi. Uning rivojlanishi talabaning motivatsion-kognitiv imkoniyatlari, o‘qituvchining transformatsion faoliyati, tadqiqotga yo‘naltirilgan mazmun, ilmiy-metodik va institutsional muhit hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatining didaktik imkoniyatlari o‘zaro uyg‘unlashtirilgandagina samarali kechishi ilmiy jihatdan asoslandi.



2-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda ilmiy-tadqiqot faoliyatining didaktik imkoniyatlari

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish modellarining qiyosiy-pedagogik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida xorijiy davlatlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tajribalar, model va yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan, ularning metodik imkoniyatlari aniqlashtirilgan, SOLO taksonomiyasining tadqiqotchilik faoliyati natijalarini sifat jihatdan baholash va rivojlantirishdagi ahamiyati asoslangan hamda bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning integrallashgan pedagogik modeli ishlab chiqilgan.


XXI asr ta’limida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim sifatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xorijiy tajribalar asosida Inquiry-Based Learning (IBL), Engaging Learning (EL), BSCS 5E va Research Skill Development (RSD) modellari o‘rganildi. Ushbu modellar talabalarni muammoni aniqlash, savol qo‘yish, axborotni izlash, tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va natijalarni taqdim etishga yo‘naltiradi. IBL modeli tadqiqotga asoslangan izlanish faoliyatini, EL modeli esa motivatsiya, refleksiya va faol ishtirokni rivojlantirishga xizmat qiladi. BSCS 5E modeli ilmiy fikrlashni bosqichma-bosqich shakllantirsa, RSD modeli tadqiqot faoliyatining aniq strukturasi va rivojlanish bosqichlarini belgilaydi. Ushbu model va yondashuvlarni milliy pedagogik oliy ta’lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari SWOT-tahlil asosida baholandi. Tahlil natijasida xorijiy modellarning tayyor shaklini bevosita ko‘chirish emas, balki ulardagi funksional jihatdan samarali elementlarni mahalliy ta’lim mazmuni, pedagogik amaliyot, talabalar mustaqilligi, ilmiy-metodik ta’minot va mavjud resurslarga muvofiq moslashtirish zarurligi asoslandi. Xususan, real pedagogik muammolarni tadqiqot topshiriqlariga

aylantirish, tadqiqotchilik topshiriqlarini kurslar va ta’lim bosqichlari bo‘yicha murakkablashtirib borish, universitet–maktab hamkorligini kuchaytirish, talaba mustaqilligi bilan pedagogik ko‘mak o‘rtasida muvozanatni ta’minlash hamda mezonli baholash va refleksiyani kuchaytirish istiqbolli metodik yo‘nalishlar sifatida belgilandi.

SOLO (Structure of the Observed Learning Outcome) taksonomiyasining metodik imkoniyatlari tadqiq etildi. SOLO taksonomiyasining Prestructural, Unistructural, Multistructural, Relational va Extended Abstract darajalari tadqiqot topshirig‘ida alohida ma’lumotlarni qayd etishdan boshlab, ularni o‘zaro bog‘lash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, yaxlit tizimga birlashtirish, umumlashtirish va yangi vaziyatga tatbiq etishgacha bo‘lgan fikrlash tuzilmasining sifat jihatdan murakkablashuvini tavsiflash imkonini berishi asoslandi. SOLO taksonomiyasi tadqiqotchilik ko‘nikmalarining barcha tarkibiy jihatlarini baholovchi universal vosita sifatida emas, balki, avvalo, talabaning tadqiqot topshirig‘ini bajarishda fikr va dalillarni tanlash, tizimlashtirish, o‘zaro bog‘lash, sabab-oqibat munosabatlarini asoslash, umumlashtirish hamda hosil qilingan xulosani yangi vaziyatga ko‘chira olish sifatini aniqlovchi diagnostik-rivojlantiruvchi metodik vosita sifatida talqin qilindi. Shu asosda tadqiqot topshiriqlarini oddiy axborotni aniqlashdan dalillarni qiyoslash, ularni yagona mantiqiy tizimga birlashtirish va yangi ilmiy xulosaga kelishgacha bosqichma-bosqich murakkablashtirish, baholash natijalaridan esa talabaning keyingi rivojlanish yo‘nalishini belgilash va zarur pedagogik yordamni aniqlashda foydalanish mumkinligi asoslandi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish murakkab va ko‘p omilli pedagogik jarayon bo‘lib, uning maqsadi, mazmuni, metodlari, rivojlantiruvchi omillari, baholash mezonlari hamda kutilayotgan natijalarini yagona tizim asosida ifodalash zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur jarayonning tarkibiy qismlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanish bosqichlarini yaxlit holda aks ettiruvchi tuzilma pedagogik model hisoblanadi. Tadqiqot davomida olingan natijalar hamda xorijiy tajribalar, zamonaviy pedagogik modellar va nazariy yondashuvlar tahlili bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning integrallashgan pedagogik modelini ishlab chiqish hamda uning tarkibiy komponentlari va rivojlanish bosqichlarini asoslash imkonini berdi. Ushbu model maqsad, metodologik asoslar, yondashuvlar, tamoyillar, pedagogik-psixologik xususiyatlar, rivojlantiruvchi omillar, texnologik-metodik tarkib, rivojlanish bosqichlari, baholash mezonlari va shakllari hamda natijaviy bloklarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asosida tuzildi (3-rasm).

Tadqiqotning asosiy g‘oyalari ilgari surilgan va amaliyot uchun asos bo‘lgan uchinchi bobi **“Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini xorijiy tajriba asosida rivojlantirish metodikasi”** deb nomlanadi. Unda xorijiy tajriba asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali shakl va metodlari tizimlashtirilgan, interfaol usullarni qo‘llash metodikasi, uning algoritmi hamda amaliy tatbiq etish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan dastur mazmuni, uni amalga oshirish




3-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning integrallashgan pedagogik modeli

bosqichlari, metodik ta’minoti va kutilayotgan natijalari asoslab berilgan. Bobda mualliflik SPARK va TRACE metodlari, autentik tadqiqot topshiriqlari hamda tadqiqotchilik faoliyatini raqamli muhitda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yoritilgan.

Xorijiy tajribalar tahlili bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda Inquiry-Based Learning, loyihaviy-tadqiqot, hamkorlikdagi tadqiqot va muammoli o‘qitish yondashuvlarining metodik imkoniyatlarini aniqlashga asos bo‘ldi. Mazkur yondashuvlar talabaning ilmiy muammoni aniqlashi, tadqiqot savolini shakllantirishi, axborotni izlash va tahlil qilishi, dalillarga asoslangan xulosa chiqarishi hamda natijalarni ilmiy muloqotda taqdim etishini ta’minlaydi. Kichik ilmiy-tadqiqot guruhlari, kooperativ izlanish, ilmiy diskussiya va situatsion seminarlar talabaning individual mas’uliyati bilan jamoaviy izlanishni uyg‘unlashtiruvchi tashkiliy shakllar sifatida tavsiflandi. Mentimeter, Kialo Edu, Sciwheel va Zotero AI kabi raqamli vositalarning ilmiy axborot bilan ishlash, muhokama, refleksiya va tadqiqot natijalarini taqdim etishdagi imkoniyatlari ham yoritildi.

Xorijiy tajribalarni qiyosiy o‘rganish natijasida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini alohida metodlar orqali emas, balki o‘zaro bog‘langan faoliyat bosqichlari asosida rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Shu asosda interfaol usullarni qo‘llash orqali tadqiqotchilik ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish algoritmi ishlab chiqildi (4-rasm). Algoritm muammoli vaziyatni aniqlash, gipoteza shakllantirish, axborotni izlash va tahlil qilish, natijalarni taqdim etish hamda refleksiya bosqichlarini qamrab oladi. Interfaol metodlar ushbu jarayonda umumiy faollikni oshiruvchi vosita sifatida emas, balki muayyan tadqiqotchilik harakatini rivojlantiruvchi metodik vosita sifatida tanlandi.


Interfaol usullarni qo‘llash asosida ishlab chiqilgan algoritmning metodik mantig‘i tadqiqotchilik ko‘nikmalarini bir martalik topshiriq orqali emas, balki o‘zaro bog‘langan faoliyat bosqichlari orqali izchil rivojlantirishga asoslanadi. Dastlab talabaning e’tibori muammoli pedagogik vaziyatga yo‘naltiriladi, keyingi bosqichda mazkur vaziyat ilmiy muammo va tadqiqot savoliga aylantiriladi. Shundan so‘ng talaba muammo yuzasidan zarur ilmiy axborotni izlash, manbalarni saralash, turli qarash va dalillarni tahlil qilish hamda o‘zaro taqqoslash faoliyatiga jalb etiladi. Keyingi bosqichlarda esa olingan natijalar asosida ilmiy xulosa ishlab chiqish, uni dalillar bilan asoslash, taqdim etish va refleksiv baholash amalga oshiriladi. Algoritmning har bir bosqichi muayyan tadqiqotchilik harakatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, pedagogik ta’sir mazmuni talabaning mavjud faoliyat darajasidan keyingi murakkab tadqiqot harakatiga o‘tishini ta’minlashga xizmat qiladi. Muammoli vaziyatni anglash bosqichida muammoni ko‘rish va ilmiy savol qo‘yish, axborot bilan ishlash bosqichida manbalarni izlash, saralash, tahlil qilish va qiyoslash, natijalarni umumlashtirish bosqichida esa dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Natijalarni taqdim etish va refleksiya bosqichlarida talaba o‘z ilmiy qarashlarini asosli ifodalash, fikr-mulohazalarni qabul qilish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va keyingi tadqiqot vazifalarini belgilash tajribasiga ega bo‘ladi.



4-rasm. Interfaol usullarni qo‘llash asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish algoritmi

Algoritmning muhim jihati shundaki, unda interfaol metodlar umumiy pedagogik faollikni oshirish vositasi sifatida emas, balki aniq tadqiqotchilik harakatini rivojlantiruvchi metodik vosita sifatida tanlanadi. Jumladan, muammoli o‘qitish, keys-stadi va aqliy hujum metodlari muammoni aniqlash va savol shakllantirishga, tushunchalar tahlili va taqqoslash metodlari ilmiy axborot bilan ishlashga, ilmiy diskussiya va taqdimot metodlari esa dalillarni asoslash, natijalarni ifodalash va refleksiv tahlilga xizmat qiladi. Muammoli vaziyatni ilmiy muammo va tadqiqot savoliga aylantirish bosqichida mualliflik SPARK metodidan foydalanish belgilandi.


Muammoli vaziyat yaratish bosqichida muallif tomonidan ishlab chiqilgan SPARK (Situation–Problem–Analysis–Research–Knowledge) interfaol metodidan foydalanish tavsiya etildi (5-rasm). Bu metod talabalarda ilmiy izlanishga qiziqish uyg‘otish, muammoni aniqlash, tahlil qilish hamda tadqiqot savollarini shakllantirishga xizmat qiladi.



5-rasm. SPARK interfaol metodining chizmasi

SPARK metodining metodik yangiligi muammoli vaziyatni bevosita ilmiy tadqiqot vazifasiga aylantirish mexanizmini bosqichli tashkil etish bilan belgilanadi. Situation bosqichida talaba real yoki ta’limiy vaziyatni anglaydi, Problem bosqichida undagi asosiy ilmiy muammoni ajratadi, Analysis bosqichida muammoning sabab va omillarini tahlil qiladi, Research bosqichida tadqiqot savollari va izlanish yo‘nalishini belgilaydi, Knowledge bosqichida esa olingan natijalarni umumlashtirish asosida yangi bilim va xulosaga keladi. Shu tariqa metod muammoni ko‘rishdan ilmiy savol va asoslangan bilimga o‘tishning mantiqiy zanjirini yaratadi.

Axborotni tahlil qilish bosqichida muallif tomonidan ishlab chiqilgan TRACE interfaol metodidan foydalanish asoslandi (6-rasm). Ushbu metod ilmiy axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish orqali asoslangan ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. TRACE metodining metodik mohiyati ilmiy axborot bilan ishlashni tasodifiy yoki fragmentar jarayon sifatida emas, balki izchil tahliliy faoliyat sifatida tashkil etishdan iborat. Metodda talaba dastlab muammo bilan bog‘liq manbalar va ma’lumotlar bilan tanishadi, keyingi bosqichda axborotlarni tadqiqot maqsadiga muvofiq saralaydi, so‘ng ularning mazmuniy aloqalari va sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qiladi. Turli manbalardagi dalillarni o‘zaro taqqoslash orqali o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanadi hamda yakunda ilmiy asoslangan xulosa shakllantiriladi. Shu sababli TRACE metodi tadqiqotchilik ko‘nikmalarining axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish va dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish bilan bog‘liq harakatlarini yaxlit jarayonda rivojlantirishga xizmat qiladi.



6-rasm. TRACE interfaol metodining chizmasi

SPARK va TRACEning funksional farqi ham shu asosda aniqlashtirildi: SPARK asosan muammoni aniqlash va tadqiqot savolini shakllantirish bosqichiga, TRACE esa ilmiy axborotni qayta ishlash va asoslangan xulosa chiqarish bosqichiga yo‘naltiriladi. Shu jihatdan bu ikki mualliflik metodi bir-birini takrorlamaydi, balki tadqiqotchilik faoliyatining ketma-ket bosqichlarini metodik jihatdan ta’minlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol usullarni qo‘llash metodikasi o‘zaro bog‘liq *maqsad, mazmun, jarayon, baholash va natija komponentlari* asosida tashkil etildi. Maqsad komponenti talabalarda ilmiy muammoni aniqlash, tadqiqot savolini shakllantirish, gipoteza ilgari surish, dalillarga tayangan holda tahlil qilish va refleksiv baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Mazmun komponentida predmetga oid nazariy bilimlar tadqiqot faoliyatining muammoni aniqlash, axborotni izlash va saralash, tahlil qilish, umumlashtirish hamda asoslangan xulosa chiqarish kabi ilmiy bilish operatsiyalari bilan integratsiyalandi. Jarayon komponentida o‘quv faoliyati ilmiy izlanish mantiqiga muvofiq muammoli vaziyatni aniqlash, gipotezani ishlab chiqish, dalillarni yig‘ish va tahlil qilish, natijalarni taqdim etish hamda refleksiya bosqichlari asosida tashkil etildi. Baholash komponenti talabalarning muammoni aniqlash, dalillar bilan ishlash, mantiqiy tahlil va asoslangan xulosa chiqarish ko‘rsatkichlarini mezonlar asosida kuzatish hamda baholashni nazarda tutdi. Natija komponenti esa talabalarning ilmiy savol tuzishi, manbalarni qiyoslashi, dalillarga asoslangan fikr bildirishi, o‘z qarashlarini himoya qilishi va mustaqil metodik xulosa chiqarishida namoyon bo‘ladigan sifat o‘zgarishlari bilan tavsiflandi.

Metodikaning amaliy tatbiqi geografiya, biologiya, pedagogika va tarix ta’lim yo‘nalishlari uchun ishlab chiqilgan autentik topshiriqlar orqali amalga oshirildi. Har bir topshiriqda talaba bo‘lajak o‘qituvchi sifatida o‘quvchining javobi yoki o‘rganish jarayonidagi muayyan qiyinchilikni tadqiqot obyekti sifatida qabul qilib, unga mos ilmiy savol va gipoteza ishlab chiqadi, dalillarni tahlil qiladi, metodik qaror qabul qiladi hamda uni asoslaydi. Geografiya yo‘nalishida xarita asosidagi

sababiy izohlarni shakllantirish, biologiyada oziqlanish zanjiridagi aloqalarni tushuntirish, pedagogikada guruhli faoliyat bilan individual dalillash o‘rtasidagi farqni aniqlash, tarixda esa manbalar asosida tarixiy dalil chiqarish va qiyosiy xulosa tuzishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqildi. Tadqiqot topshiriqlarining oddiydan murakkabga tomon izchil tashkil etilishi, ilmiy rahbar va talaba o‘rtasidagi muntazam hamkorlik, bajarilgan faoliyat yuzasidan fikr-mulohaza bildirish, natijalarni muhokama qilish va refleksiv baholash muhim metodik mexanizm sifatida belgilandi. Bu jarayonda talaba faqat topshiriq bajaruvchi emas, balki o‘z tadqiqot faoliyatini rejalashtiruvchi, ilmiy axborotni mustaqil izlovchi, dalillarni tahlil qiluvchi, natijalarni asoslovchi va o‘z faoliyatiga baho beruvchi subyekt sifatida ishtirok etadi.

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini auditoriya va mustaqil ta’lim doirasida rivojlantirish bilan bir qatorda, ularni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash va individual rivojlanish dinamikasini monitoring qilish zarurati aniqlandi. Shu maqsadda bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini yagona raqamli muhitda tashkil etish, boshqarish va monitoring qilish imkonini beruvchi **“Tadqiqotmaktabi.uz”** elektron platformasi ishlab chiqildi. Platformadagi Mentorlik moduli ilmiy rahbar va talaba hamkorligini, Topshiriqlar moduli tadqiqot vazifalarini rejalashtirish va nazorat qilishni, Research Pipeline tadqiqot bosqichlarini izchil boshqarishni, Marketplace ilmiy loyiha va jamoalarda ishtirok etishni, Elektron kutubxona ilmiy resurslardan foydalanishni, Muhokamalar ilmiy muloqot va maslahatni, Gamifikatsiya esa tadqiqot faoliyatiga motivatsion qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi.

Platformaning mualliflik xususiyati mavjud ilmiy axborot tizimlarini takrorlashda emas, balki ilmiy rahbarlik – tadqiqot topshiriqlari – ilmiy resurs – muhokama – monitoring – natijani taqdim etish jarayonlarini yagona pedagogik raqamli muhitga integratsiyalashda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan “Tadqiqotmaktabi.uz” bo‘lajak o‘qituvchilarda rivojlantirilgan tadqiqotchilik ko‘nikmalarini mustahkamlash, individual rivojlanish dinamikasini kuzatish, ilmiy rahbarlik jarayonini tizimlashtirish va ilmiy faoliyat natijalarini tahlil qilishga xizmat qiluvchi raqamli-pedagogik muhit sifatida tavsiflandi.

Dissertatsiyaning “**Xorijiy tajriba asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining tahlili**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarining borishi, o‘tkazish shakl va metodlari mazmuni hamda natijalari bayon etilgan.

Nazariya va amaliyotni rivojlantirishning, fanni boyitishning muhim vositasi, voqelikni amaliy jihatdan empirik bilish jarayoni – bu tajriba-sinovdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning mavjud holatini, mazkur jarayonda xorijiy tajribalarni qo‘llash imkoniyatlarini, interfaol metodlar va raqamli pedagogik muhitdan foydalanish shart-sharoitlarini nazariy jihatdan o‘rganish, ularning amaliyotdagi holatini aniqlash, tadqiqot davomida loyihalangan modellarni ilmiy asoslash bilan bir qatorda ilgari surilgan g‘oyalarning samaradorligini eksperimental tarzda sinab ko‘rish zarurati mavjud. Chunki tajriba-sinov ishlarining turli shakl va metodlarda o‘tkazilishi dissertatsiya ishida ta’kidlangan ilmiy farazlar hamda qarashlarning qay darajada ishonchliligini sinab ko‘rish imkonini beradi, amaliyotdagi natijadorligini ko‘rsatadi, yuzaga kelishi

mumkin bo‘lgan ko‘pgina savollarga javob bo‘ladi.

Tajriba-sinov ishlari davomida bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan integrallashgan pedagogik model va takomillashtirilgan metodika amaliyotga tatbiq etilib, olingan natijalar umumlashtirildi. Tadqiqotda so‘rovnomalar, suhbatlar, kuzatuv, amaliy topshiriqlar, seminar-treninglar va talabalar faoliyati mahsullarini tahlil qilish orqali ularning ilmiy muammoni aniqlash, axborotni izlash va saralash, tahlil qilish, asoslangan xulosa chiqarish, ilmiy muloqotga kirishish hamda refleksiv baholash ko‘nikmalarining rivojlanish dinamikasi o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlari pedagogik tadqiqot metodologiyasiga tayangan holda tashkil etilib, bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv-baholash mezonlari asosida aniqlab borildi. Bunda talabalarning ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasi, tadqiqotga oid nazariy bilimlari, ilmiy-amaliy topshiriqlarni bajarish layoqati, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari hamda o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatlari asosiy ko‘rsatkichlar sifatida belgilandi.

Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun maydonchalar sifatida respublikaning turli hududlarida joylashgan Samarqand davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika universiteti hamda Termiz davlat pedagogika instituti tanlab olindi. Tajriba-sinov ishlariga jami 787 nafar respondent-talaba jalb etildi. Ulardan 394 nafari tajriba guruhi, 393 nafari esa nazorat guruhi sifatida belgilandi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida 45 nafar professor-o‘qituvchi bilan suhbatlar, kuzatuvlar va so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, tadqiqot maqsadidan kelib chiqadigan, mazmuni, vazifalari va natijalariga ega bo‘lgan aniqlovchi (diagnostik), shakllantiruvchi (amaliy) hamda yakunlovchi (tahliliy-umumlashtiruvchi) bosqichlarda amalga oshirildi. Shu bilan birga, tajriba-sinov ishlarini yanada tizimli tashkil etish maqsadida mazkur bosqichlar ichki tuzilmasi kengaytirilib, tashkiliy-tayyorgarlik jarayonlari alohida bosqich sifatida ajratildi.

Aniqlovchi-diagnostik bosqichda (2023/2024-o‘quv yili) bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning mavjud holati, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga munosabati, tadqiqot topshiriqlarini bajarishga tayyorgarligi hamda ilmiy izlanish jarayonida uchraydigan metodik qiyinchiliklar tahlil qilindi. Bu bosqichda talabalar va professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga munosabatini aniqlash, talabalarda ilmiy muammoni belgilash, axborotni izlash va tahlil qilish, tadqiqot metodlarini tanlash, natijalarni asoslash hamda refleksiv baholash ko‘nikmalarining boshlang‘ich darajasini diagnostika qilishga qaratilgan anketa so‘rovnomalari, suhbatlar, pedagogik kuzatuvlar o‘tkazildi. Shuningdek, mavjud o‘quv-metodik adabiyotlar, ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar, pedagogik dasturiy vositalar va raqamli ta’lim imkoniyatlari o‘rganildi.

Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichida tajriba-sinov maydonchalari va ishtirokchilar tarkibi shakllantirildi, tajriba hamda nazorat guruhlari ajratildi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan integrallashgan pedagogik model, interfaol usullar, minitadqiqot sikli va raqamli pedagogik muhitni amaliyotga joriy etish mexanizmlari belgilandi. Shu bilan birga, talabalarda tadqiqotchilik

ko‘nikmalarining rivojlanish darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi diagnostik vositalar, baholash mezonlari va metodik ta’minot ishlab chiqildi.

Shakllantiruvchi-amaliy bosqichda (2024/2025-o‘quv yili) bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan takomillashtirilgan metodik tizim amaliyotga tatbiq etildi. “Umumiy pedagogika” hamda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasiga oid, jumladan, pedagogika, geografiya, biologiya va tarixni o‘qitish metodikasi fanlari mashg‘ulotlari jarayonida interfaol metodlar, muammoli topshiriqlar, keyslar, loyiha ishlari, minitadqiqot sikli hamda raqamli pedagogik muhit imkoniyatlaridan foydalanildi. Talabalar ilmiy muammoni aniqlash, gipoteza ilgari surish, ilmiy manbalarni izlash va saralash, axborotni tahlil qilish, natijalarni asoslash, ilmiy xulosa chiqarish va refleksiya qilishga yo‘naltirildi. Mazkur bosqichda tajriba va nazorat guruhlari natijalari muntazam kuzatib borildi hamda metodik tizimning talabalardagi tadqiqotchilik ko‘nikmalariga ta’siri aniqlab borildi.

Yakunlovchi tahliliy-umumlashtiruvchi bosqichda (2025/2026-o‘quv yili) tajriba-sinov ishlari natijalari umumlashtirildi, tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi hamda olingan ma’lumotlar matematik-statistik usullar asosida qayta ishlandi. Ushbu bosqichda talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarining rivojlanish dinamikasi baholandi, ishlab chiqilgan integrallashgan pedagogik model va takomillashtirilgan metodika hamda amaliy yondashuvlarning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi, yakuniy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ma’lumki, tajriba-sinov ishlarida pedagogik muammo yechimining samaradorligini aniqlashda o‘rganilayotgan jarayondagi ijobiy o‘zgarishlar asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida qabul qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligini aniqlash uchun quyidagi mezonlar belgilandi:

Tajriba-sinov jarayonida tadqiqotchilik ko‘nikmalarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun tadqiqot doirasida belgilangan mezon, ko‘rsatkich va darajalardan foydalanildi (1-jadval).

1-jadval

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini baholash mezonlari

№	Baholash mezoni	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Past daraja
1	**Motivatsion**	Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga barqaror qiziqish bildiradi, mustaqil izlanishga intiladi, ilmiy muammolarni aniqlash va hal etishda tashabbus ko‘rsatadi.	Tadqiqot faoliyatiga qiziqadi, biroq faolligi doimiy emas, ayrim vaziyatlarda tashqi rag‘batga ehtiyoj sezadi.	Ilmiy izlanishga qiziqishi sust, tadqiqot topshiriqlarini bajarishda tashabbus ko‘rsatmaydi.
2	**Kognitiv**	Tadqiqot metodologiyasi, ilmiy tushunchalar va tadqiqot bosqichlari	Tadqiqot faoliyatiga oid asosiy bilimlarga ega,	Tadqiqot metodlari va ilmiy tushunchalar bo‘yicha bilimlari

№	Baholash mezoni	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Past daraja
		bo‘yicha puxta bilimga ega, ilmiy axborotni tanqidiy tahlil qila oladi.	axborotni qisman tahlil qila oladi.	yetarli emas, axborotni tahlil qilishda qiynaladi.
3	**Operatsion-faoliyat**	Muammoni mustaqil aniqlaydi, ma’lumotlarni izlaydi, tahlil qiladi, ilmiy xulosa chiqaradi va natijalarni taqdim etadi.	Tadqiqot faoliyatini qisman mustaqil amalga oshiradi, ayrim bosqichlarda yordamga ehtiyoj sezadi.	Tadqiqot topshiriqlarini bajarishda qiyinchilikka duch keladi, faoliyatni asosan o‘qituvchi ko‘magida amalga oshiradi.
4	**Refleksiv-baholash**	O‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qiladi, natijalarni baholaydi, xatolarini aniqlab takomillashtirish yo‘llarini belgilaydi.	O‘z faoliyatini qisman baholay oladi, ayrim kamchiliklarni aniqlaydi.	O‘z faoliyati va natijalarini baholashda qiynaladi, refleksiya ko‘nikmalari yetarli shakllanmagan.

Ushbu mezonlar talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini kompleks baholash, ularning rivojlanish darajasini aniqlash hamda tajriba va nazorat guruhlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi. Shu asosda takomillashtirilgan metodik tizim doirasida interfaol metodlar, minitadqiqot sikliga asoslangan topshiriqlar hamda raqamli pedagogik muhit imkoniyatlari orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etish yo‘lga qo‘yildi.


Tajriba-sinov ishlari samaradorligini aniqlash va natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik usullardan foydalanildi. Tajriba va nazorat guruhlari natijalarining qiyosiy tahlili ishlab chiqilgan integrallashgan pedagogik model, interfaol usullar, minitadqiqot sikli hamda raqamli pedagogik muhitdan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi (2-jadval).

2-jadval

Tajriba-sinov ishlarining guruhlar bo‘yicha qiyosiy tahlili

Tajriba-sinov maydonchalari	Daraja	Tajriba-sinov guruhlari				Nazorat guruhlari			
		Tajriba boshida talaba soni	%	Tajriba oxirida talaba soni	%	Tajriba boshida talaba soni	%	Tajriba oxirida talaba soni	%
SamDPI, BuxDPI, JDPU, TerDPI	Yuqori	55	14	128	32,5	53	13,4	51	13
	O‘rta	130	33	143	36,4	124	31,5	128	32,5
	Past	209	53	123	31,1	216	55,1	214	54,5
Jami		**394**	**100**	**394**	**100**	**393**	**100**	**393**	**100**

Ushbu holat gistogramma ko‘rinishida tasvirlanganda quyidagicha namoyon bo‘ldi (7-rasm).



7-rasm. Tajriba-sinov ishlarining guruhlar bo‘yicha qiyosiy tahlili

O‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlilini o‘tkazamiz. Mazkur metodika shartlariga ko‘ra tajriba va nazorat guruhlaridagi baholash natijalarini mos ravishda 1- va 2-tanlanmalar sifatida belgilaymiz hamda quyidagi variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz (3-jadval).

3-jadval

Tajriba va nazorat guruhlaridagi baholash natijalarining variatsion qatorlari

1-tanlanma					
Tajriba guruhi	X_i	Yuqori	O‘rta	Past	Umumiy soni
	n_i	128	143	123	n=394
2-tanlanma					
Nazorat guruhi	Y_i	Yuqori	O‘rta	Past	Umumiy soni
	m_i	51	128	214	m=393

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajriba guruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhidagilardan yuqori ekan.

Ushbu o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini foizlarda hisoblaymiz:

$$\frac{\bar{X}}{3}\cdot 100\% - \frac{\bar{Y}}{3}\cdot 100\% = \frac{4,013-3,585}{3}\cdot 100\% = 0,143\cdot 100\% = 14,3\%$$

Hisoblash natijalariga ko‘ra, tajriba guruhining hisoblangan samaradorlik ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 14,3 foiz yuqori bo‘lgan. Yuqorida keltirilgan statistik tahlillar xorijiy tajribalar asosida takomillashtirilgan metodik

tizim, interfaol metodlar, minitadqiqot sikli va raqamli pedagogik muhit bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Bu esa tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy farazning tajriba-sinov natijalari asosida o‘z tasdig‘ini topganligini e’tirof etish imkonini beradi.

XULOSA

Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini xorijiy davlatlar tajribasi asosida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish, ilg‘or pedagogik yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, integrallashgan pedagogik model, mualliflik metodlari hamda elektron platformani ishlab chiqish va ularning samaradorligini tajriba-sinov jarayonida tekshirish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalari kasbiy tayyorgarlikning muhim intellektual-amaliy tarkibiy qismi sifatida ilmiy muammoni anglash va aniqlash, tadqiqot savolini shakllantirish, gipoteza ilgari surish, ilmiy axborotni izlash va saralash, dalillarni tahlil qilish va interpretatsiyalash, asoslangan xulosa chiqarish, natijalarni ilmiy muloqotda taqdim etish hamda o‘z faoliyatini refleksiv baholash bilan bog‘liq o‘zaro uzviy harakatlar tizimi ekanligi asoslandi. Mazkur ko‘nikmalarning rivojlanishi nazariy tayyorgarlik, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ta’lim, pedagogik amaliyot va ilmiy rahbarlikning o‘zaro integratsiyasini talab etishi aniqlandi.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda ilmiy-tadqiqot faoliyatining didaktik imkoniyatlari xorijiy tajribadagi universal va kontekstual jihatlarni qiyosiy tahlil qilish asosida kognitiv-analitik, metodologik-tadqiqot, amaliy-transformativ, refleksiv-baholash, kommunikativ-akademik, innovatsion-raqamli va vizual-interpretativ yo‘nalishlarda aniqlashtirildi. Ushbu imkoniyatlarning ro‘yobga chiqishi talabaning motivatsiyasi, bilishga ehtiyoji, tanqidiy va kreativ fikrlashi, refleksiyasi kabi ichki omillar bilan metodik ta’minot, ilmiy rahbarlik, tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar, akademik hamkorlik hamda raqamli va institutsional muhit kabi tashqi omillarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqligi asoslandi.

3. Xorijiy pedagogik tajribaning qiyosiy tahlili Inquiry-Based Learning (IBL), BSCS 5E va Research Skill Development (RSD)ning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘zaro to‘ldiruvchi funksional imkoniyatlarini aniqlash imkonini berdi. IBL ilmiy izlanishning muammo–savol–dalil–xulosa mantig‘ini, BSCS 5E o‘quv faoliyatining bosqichli didaktik siklini, RSD esa tadqiqot harakatlari bilan talabaning mustaqillik darajasi va pedagogik ko‘mak hajmini o‘zaro muvofiqlashtirish imkoniyatini ta’minlashi aniqlandi. Engaging Learning g‘oyalaridan esa talabaning mazmunli ishtiroki, motivatsiyasi, hamkorligi va refleksiv faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik asos sifatida foydalanish maqsadga muvofiqligi belgilandi.

4. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning integrallashgan pedagogik modeli IBLning izlanish mantig‘i, BSCS 5Ening didaktik sikli va RSDning tadqiqot harakatlari hamda avtonomiya darajalarini o‘zaro muvofiqlashtirish asosida takomillashtirildi. Modelda metodologik asoslar,

rivojlantiruvchi omillar, texnologik-metodik tarkib, rivojlanish bosqichlari, baholash mezonlari va shakllari hamda kutilayotgan natija o‘zaro bog‘langan tuzilmaviy-funksional tizim sifatida birlashtirildi. Baholash natijalariga ko‘ra pedagogik yordam hajmini izchil kamaytirish va talabaning mustaqil tadqiqot faoliyatiga bosqichma-bosqich o‘tishini ta’minlash modelning asosiy metodik mexanizmlaridan biri sifatida belgilandi.

5. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni real pedagogik vaziyatlarga asoslangan autentik izlanish topshiriqlari, empirik dalillarning ishonchliligi va amaliy qiymatini mezonlar asosida baholash, ularni kasbiy mulohaza bilan uyg‘unlashtirish, tadqiqot natijalarini hamkorlikda ekspertizadan o‘tkazish hamda aniqlangan kamchiliklarni tuzatish asosida takomillashtirildi. Geografiya, biologiya, tarix va pedagogika ta’lim yo‘nalishlariga moslashtirilgan topshiriqlar fan mazmuni bilan tadqiqotchilik faoliyatini bog‘lash hamda talabani dalillarga asoslangan metodik qaror qabul qilishga yo‘naltirish imkonini berdi.

6. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi o‘zaro bog‘liq maqsad, mazmun, jarayon, baholash va natija komponentlari asosida takomillashtirildi. Minitadqiqot jarayonida muammoli vaziyatni ilmiy muammo va tadqiqot savoliga aylantirishga yo‘naltirilgan SPARK (Situation–Problem–Analysis–Research–Knowledge) hamda ilmiy axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish va asoslangan xulosa chiqarishga xizmat qiluvchi TRACE mualliflik metodlarining funksional o‘rni aniqlandi. SPARK va TRACE metodlarini raqamli monitoring, mezonli qayta aloqa va refleksiv baholash bilan majmuaviy qo‘llash tadqiqotchilik faoliyatining ketma-ket bosqichlarini yagona metodik tizimda tashkil etish imkonini berdi.

7. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini uzluksiz qo‘llab-quvvatlash, ilmiy rahbarlikni tizimlashtirish va individual rivojlanish dinamikasini monitoring qilish maqsadida “Tadqiqotmaktabi.uz” elektron platformasi ishlab chiqildi. Platformada mentorlik, tadqiqot topshiriqlarini boshqarish, tadqiqot jarayonini bosqichma-bosqich rejalashtirish, ilmiy resurslardan foydalanish, ilmiy muhokama, loyihaviy hamkorlik, gamifikatsiya va monitoring jarayonlari yagona raqamli-pedagogik muhitda integratsiyalandi. Platformaning metodik ahamiyati talaba–ilmiy rahbar hamkorligi, tadqiqot bosqichlari va faoliyat natijalarini kuzatiladigan, boshqariladigan va tahlil qilinadigan jarayonga aylantirishida namoyon bo‘ldi.

8. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasini baholash uchun motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv-baholash mezonlari, ularga mos ko‘rsatkichlar hamda yuqori, o‘rta va past darajalar tizimi aniqlashtirildi. Tajriba va nazorat guruhlari natijalarining qiyosiy hamda matematik-statistik tahlili takomillashtirilgan metodikaning amaliy samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhi ko‘rsatkichining nazorat guruhiga nisbatan 14,3 foizga oshgani bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik ta’minotning natijadorligini ko‘rsatdi.

Yuqorida keltirilgan xulosalar bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini xorijiy davlatlar tajribasi asosida rivojlantirish jarayonida quyidagi tavsiyalarga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi:

1. Oliy pedagogik ta’limda tadqiqotchilik faoliyatining uzluksizligini ta’minlash maqsadida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini alohida fan yoki epizodik ilmiy topshiriq doirasida emas, balki o‘quv fanlari, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ta’lim va pedagogik amaliyot mazmuniga integratsiyalashgan pedagogik jarayon sifatida tashkil etish; ilmiy muammoni aniqlash, tadqiqot savolini shakllantirish, gipoteza ilgari surish, manbalarni izlash va tahlil qilish, empirik dalillarni baholash, asoslangan xulosa chiqarish va refleksiya qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish.

2. Xorijiy yondashuvlarni milliy pedagogik ta’lim sharoitiga moslashtirishda IBL, BSCS 5E va RSDning funksional imkoniyatlaridan o‘zaro uyg‘un holda foydalanish, Engaging Learningning motivatsion, hamkorlik va refleksiyani qo‘llab-quvvatlovchi g‘oyalaridan maqsadga muvofiq foydalanish; professor-o‘qituvchilar uchun mazkur yondashuvlarni fan mazmuni, mustaqil ta’lim va pedagogik amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar va malaka oshirish modullarini ishlab chiqish.

3. “Umumiy pedagogika”, “Pedagogik mahorat”, “Pedagogik texnologiyalar” hamda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi doirasida real kasbiy vaziyatlarga asoslangan autentik minitadqiqot topshiriqlarini keng joriy etish; muammoli vaziyatni ilmiy muammo va tadqiqot savoliga aylantirishda SPARK, ilmiy axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, qiyoslash va xulosa chiqarishda TRACE metodlaridan foydalanish hamda fanlar kesimida namunaviy topshiriqlar, baholash rubrikalari va metodik tavsiyalar bankini shakllantirish.

4. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini raqamli pedagogik muhitda tashkil etish uchun ilmiy rahbarlik, tadqiqot topshiriqlari, ilmiy resurslar, loyihaviy hamkorlik, muhokama, monitoring va natijalarni taqdim etish jarayonlarini yagona tizimda integratsiyalash; shu maqsadda “Tadqiqotmaktabi.uz” platformasining Mentorlik, Topshiriqlar, Tadqiqot jarayoni, Ilmiy loyihalar maydoni, Elektron kutubxona, Muhokamalar va Gamifikatsiya modullarini pedagogika oliy ta’lim muassasalari ehtiyojlariga mos ravishda bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish.

5. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini baholash va monitoring qilishda faqat yakuniy mahsulot yoki ballga tayanmasdan, ilmiy izlanishning butun jarayonini qamrab oluvchi diagnostik tizimdan foydalanish; motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv-baholash mezonlari hamda ularga mos ko‘rsatkichlar asosida talabaning rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish, natijalarni raqamli muhitda qayd etish, rivojlantiruvchi teskari aloqa berish va aniqlangan qiyinchiliklarga muvofiq individual pedagogik yordamni belgilash.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ХАМРОЕВА ФЕРУЗА АСРОРОВНА

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (педагогика)

АВТОРЕФЕРАТ

ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)

Бухара – 2026

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована под номером B2026.2.DSc/Ped1535 в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.buxdpi.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	**Ибрагимов Аъламжон Амриллоевич** доктор педагогических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Саидова Мохинур Жонпулатовна** доктор педагогических наук, профессор
	Олимов Ширинбой Шарофович доктор педагогических наук, профессор
	Карахонова Лобархон Мусахоновна доктор педагогических наук, профессор
Ведущая организация:	Каттакурганский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится «19» ноябрь 2026 года в 14^{00} часов на заседании Научного совета DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном педагогическом институте. (Адрес: 200100, г. Бухара, ул. Пиридастгир, 2. Тел.: (365) 226-10-96; факс: (365) 226-10-96, e-mail: buxdpi@buxdpi.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного педагогического института (зарегистрирована под № 45). (Адрес: 200100, г. Бухара, ул. Пиридастгир, 2. Тел.: (365) 226-10-96.

Автореферат диссертации разослан «4» ноябрь 2026 г.

(реестр протокола рассылки № 47 от «4» ноябрь 2026 г.)

Б.Б.Маъмуров
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.п.н., (DSc), профессор

Г.Р.Акрамова
Научный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, д.п.н., (DSc), профессор

М.М.Бафаев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.психол.н. (DSc)., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой системе образования систематически внедряются в практику программы и технологии, сочетающие профессиональную подготовку будущих учителей с научными исследованиями. В частности, программа подготовки учителей-предметников STEP Хельсинкского университета (Финляндия) включает курс «Учитель как исследователь» [1] (Teacher as a Researcher), а также педагогическую практику с рефлексивными компонентами. Такая организация подготовки создаёт предпосылки для осмысления практического опыта с позиций педагогической теории и развития исследовательского подхода к профессиональной деятельности. В этом контексте актуальным направлением совершенствования подготовки будущих учителей представляется разработка методики развития исследовательских навыков, предусматривающей поэтапное усложнение исследовательских заданий, постепенное сокращение педагогической поддержки по мере роста самостоятельности студентов и систематическую критическую оценку полученных результатов.

В мировых образовательных учреждениях и научно-исследовательских центрах в научных исследованиях по исследовательской подготовке будущих учителей изучаются вопросы исследовательского мышления, толерантности к неопределенности, развития навыков сравнения альтернативных комментариев и пересмотра первоначальных взглядов на основе новой информации, а также формирования исследовательской позиции, выражающей осознанное отношение к научной проблеме. В исследованиях данного направления внимание уделяется не только полученным результатам, но и процессу их достижения, а также развитию исследовательской компетенции, включающей методологические знания студента, умение выбирать дизайн исследования и ответственность за обоснованность научных выводов. В связи с этим возникает необходимость дальнейшего изучения взаимосвязей мотивационного, когнитивного, деятельностного и рефлексивного компонентов исследовательской компетенции, обоснования методических механизмов переноса исследовательских навыков в различные предметные области и профессиональные ситуации, а также разработки валидных и надёжных инструментов диагностики динамики её развития.

В последние годы в нашей республике реформы, направленные на обновление подготовки педагогических кадров, поддержку научных инициатив в высшем образовании и внедрение инновационных разработок в практику, увеличивают потребность в усилении исследовательской подготовки будущих учителей. Задача «широкого внедрения передового

[1] University of Helsinki. Subject Teacher Education Programme in English (STEP). Structure and Content of Studies [Elektron manba]. – URL: https://studies.helsinki.fi/instructions/article/subject-teacher-education-programme-english-step

зарубежного опыта, выводящего качество на новый уровень» [2] в образовании указывается в качестве приоритетного направления в данной области, что усиливает значимость исследований, направленных на сравнительное изучение педагогических решений, определение условий их применения и проверку их результативности. Реализация этих задач требует от будущих учителей обоснованного выбора зарубежного опыта, создания методических разработок, соответствующих местным условиям обучения, и их подготовки к проверке посредством мини-исследований, что делает совершенствование научно-методического обеспечения развития исследовательских навыков актуальной педагогической необходимостью.

Данная диссертация в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, № УП-134 «Об утверждении Национальной программы развития школьного образования на 2022-2026 годы» от 11 мая 2022 года, № УП-73 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки педагогических кадров» от 28 апреля 2025 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-289 «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений по подготовке педагогических кадров» от 21 июня 2022 года, №ПП-152 «О мерах по реализации проекта «Повышение качества и эффективности образования в Республике Узбекистан» от 28 апреля 2025 года, а также в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 133 «О мерах по дальнейшему совершенствованию нормативно-правовой базы развития научно-исследовательской и инновационной деятельности» от 9 марта 2020 года, и в других нормативно правовых документах относительно данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и их реализация в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства.»

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации[3]**.** Фундаментальные и практические исследования по развитию

[2] Mirziyoyev Sh. M. Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnoma. — 2025-yil, 26-dekabr.

[3] Consuming, producing, and justifying: Finnish student teachers’ views of research methods. https://doi.org/10.1080/1743727X.2020.1737003; The goal of research-based learning in teacher education: Norwegian and Finnish teacher educators’ perspectives. https://doi.org/10.1080/2331186X.2025.2465918; Research-based learning and the development of an inquiry habit of mind in teacher education: A systematic literature review. https://doi.org/10.1007/s35834-025-00526-0; Inquiry-Based Learning in Teacher Training. https://doi.org/10.1007/978-3-030-14223-0_12; Pre-service teachers’ reflection on their efficacy beliefs in conducting action research. https://doi.org/10.1080/14623943.2021.2014312.

исследовательских навыков будущих учителей, формированию исследовательского мышления и отношения к научным изысканиям, гармонизации методологической подготовки с педагогической практикой, а также совершенствованию исследовательской компетенции проводятся в ряде высших учебных заведений мира, в частности, в университетах Хельсинки и Åbo Akademi (Финляндия), Венском университете (Австрия), Ольденбургском университете имени Карла фон Оссиецкого (Германия) и Университете De La Salle (Филиппины).

В мировой практике исследования, посвящённые развитию исследовательских навыков будущих учителей, позволили получить ряд научно-практических результатов. В частности, раскрыта роль использования научных данных, проведения самостоятельных исследований и обоснования методических решений в профессиональной деятельности учителя (Хельсинкский университет, Финляндия); выделены академическое письмо, исследовательская компетенция, критическое и аналитическое мышление, а также непрерывное профессиональное обучение как основные направления педагогической подготовки, основанной на исследованиях (Университет Åbo Akademi, Финляндия); на основе систематического обзора 47 эмпирических исследований обобщены возможности исследовательского обучения в развитии глубокого понимания изучаемых проблем, готовности действовать в условиях неопределённости, учитывать различные точки зрения и последовательно формулировать исследовательские вопросы (Венский университет, Австрия); разработаны организационно-методические основы интеграции исследовательской деятельности студентов, изучения методологии исследования и педагогической практики (Ольденбургский университет имени Карла фон Осецкого, Германия); выявлена связь опыта успешного выполнения практических исследований, сотрудничества и эмоциональных переживаний с исследовательской самоэффективностью будущих учителей — их уверенностью в собственной способности осуществлять исследовательскую деятельность (Университет Де Ла Саль, Филиппины).

Несмотря на многообразие зарубежных исследований, посвящённых развитию исследовательских навыков будущих учителей в рамках research-based learning, inquiry-based learning, action research, Lesson Study, collaborative research, evidence-informed practice и рефлексивной деятельности, сохраняется необходимость системного осмысления полученных результатов применительно к национальному контексту педагогического образования. Дальнейшего научного обоснования требуют рассмотрение исследовательских навыков как целостной интегративной системы, определение её структурных компонентов и этапов развития, разработка критериев и показателей их сформированности, а также согласование педагогических механизмов, обеспечивающих последовательное развитие этих навыков в процессе подготовки будущих учителей в высших образовательных организациях Республики Узбекистан.

Степень изученности проблемы. В Узбекистане вопросы подготовки и ориентации студентов и будущих учителей на научно-исследовательскую деятельность, формирования и развития исследовательских навыков и компетенций, организации учебно-исследовательской деятельности и совершенствования ее методического и дидактического обеспечения изучены в научных исследованиях С.Аллаяровой, И.Аскарова, Н.Ражабовой, Ж.Турматова, И.Рузимовой, Н.Нарзиевой, К.Суярова, У.Усмановой, Л.М.Карахоновой и других. Вопросы профессионального развития педагогов, формирования научного мировоззрения у студентов и учащихся, интеграции современных педагогических технологий в образовательный процесс, развития проектной деятельности и совершенствования научного потенциала научно-исследовательских учреждений исследованы в научных работах таких ученых, как А.Ибрагимов, Б.Ходжаев, Н.Атакулова, М.Ирисбаева, А.Рахимов, И.Расулов, О.Махманов.

Вопросы привлечения студентов к научно-исследовательской деятельности в образовательном процессе, формирования у них исследовательских навыков, организации и развития научно-исследовательской деятельности освещены в научных исследованиях таких ученых СНГ, как Т.Августмонова, О.Байзулаева, В.Власова, Э.Гирфанова, И.Данилова, И.Зимняя, Э.Шашенкова, Т.Злиднева, М.Кларин, В.Клочков, С.Додуева, Э.Богодухова, Л.Ландау, Э.Лифшиц, А.Леонтьев, А.Мазалецкая, Н.Никандров, Г.Николаенко, В.Полонский, О.Проказова, С.Рейзвих, Д.Фельдштейн, А.Хуторской, В.Шадриков, И.Якиманская и других.

В научных трудах ученых зарубежных стран J.Dewey (Джон Дьюи), J.Bruner (Jerome Bruner), J.Piaget (Jean Piaget), L.Vygotsky (Лев Выготский), J.Biggs (Джон Биггс), K.Collis (Кевин Коллис), A.Brew (Анджела Брю), M.Healey (Мик Хили), A.Jenkins (Алан Дженкинс), R.Bybee (Роджер Биби), E.Deci (Эдвард Деси), R.Ryan (Ричард Райан), J.Willison (Джон Виллисон), K.O'Regan (Керри О.Реган), R.Sternberg (Роберт Стенберг), B.Joyce (Брюс Джойс), M.Weil (Марша Вейл), L.Shulman (Ли Шульман), D.Schön (Дональд Шон), P.Ramsden (Пол Рамсден), P.Sahlberg (Паси Сахлберг), R.Marzano (Роберт Марцано) и других освещены теоретические и практические основы активизации познавательных процессов обучающихся, организации исследовательского образования, развития рефлексивного мышления, формирования самостоятельной учебной деятельности и развития навыков.

Несмотря на наличие исследований по развитию исследовательских навыков у будущих учителей, недостаточно разработана целостная методическая система, направленная на системное развитие этих навыков, интеграцию с образовательным процессом, гармоничное формирование навыков самостоятельного исследования, рефлексивного мышления и критического анализа. Также не полностью освещены вопросы разработки научно-методических решений развития исследовательских навыков на основе анализа зарубежного опыта и его адаптации к условиям национального педагогического образования. Это определяет необходимость

совершенствования методики развития исследовательских навыков будущих учителей на основе зарубежного опыта.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ образовательного учреждения, в котором выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках плана научно-исследовательских работ Самаркандского государственного педагогического института по программе «Развитие и совершенствование научно-методических исследований, направленных на решение проблем регионального образования в области педагогики посредством цифровой трансформации, возможностей искусственного интеллекта, инновационных технологий и интеграции передового зарубежного опыта.»

Целью исследования является разработка научно-методических предложений и рекомендаций по совершенствованию методики развития исследовательских навыков будущих учителей на основе зарубежного опыта.

Задачи исследования:

определение дидактических возможностей развития исследовательских навыков у будущих учителей на основе сравнительного анализа зарубежного опыта;

совершенствование интегрированной модели развития исследовательских навыков у будущих учителей на основе интеграции IBL, Engaging Learning, BSCS 5E и RSD;

совершенствование содержания развития исследовательских навыков будущих учителей на основе аутентичного исследования, педагогических решений, основанных на доказательствах, совместной исследовательской деятельности и рефлексивной практики;

совершенствование методики развития исследовательских навыков у будущих учителей на основе комплексного применения методов SPARK и TRACE, а также механизмов цифрового мониторинга;

определение эффективности научно-методического обеспечения, направленного на развитие исследовательских навыков у будущих учителей, на основе критериев и показателей, а также математико-статистического анализа.

В качестве объекта исследования определен процесс развития исследовательских навыков будущих учителей, в педагогическую опытно-экспериментальную работу были привлечены 787 студентов Самаркандского, Бухарского, Термезского государственных педагогических институтов и Джизакского государственного педагогического университета.

Предмет исследования составляют содержание, средства, формы и методы методики развития исследовательских навыков будущих учителей на основе зарубежного опыта.

Методы исследования. В процессе исследования использовались методы изучения и анализа нормативных документов, научной и учебно-методической литературы, педагогического наблюдения, диагностики, беседы, анкетирования, тестирования, сравнительного анализа, обобщения,

моделирования, педагогического эксперимента и математико-статистического анализа.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

уточнены методологическо-исследовательские и практико-трансформативные дидактические возможности развития исследовательских навыков у будущих учителей путем выявления связи между проектированием исследования при анализе зарубежного опыта и внедрением его результатов в учебную практику, исходя из необходимости изучения причин трудностей в усвоении учащимися и принятия обоснованных профессиональных решений, а также определения условий применения этих направлений в национальных образовательных условиях;

усовершенствована интегрированная педагогическая модель развития исследовательских навыков у будущих учителей на основе логики вопрос-доказательство-вывод IBL, дидактических этапов BSCS 5E и механизма обратной связи, обеспечивающего взаимосвязь поисковых действий RSD, определение следующей задачи по результатам диагностики и предоставление методических рекомендаций, соответствующих выявленным трудностям, для приведения мини-исследовательских заданий в соответствие с существующими знаниями и навыками студента;

усовершенствовано содержание развития исследовательских навыков у будущих учителей на основе практической апробации учебного задания, комплекса упражнений или плана занятия, подготовленного студентом в рамках аутентичных заданий, соответствующих географии, биологии, истории и педагогике, с целью направления усвоенных знаний на решение профессиональных задач, оценки достоверности эмпирических доказательств и координации деятельности по корректировке содержания и порядка применения этих материалов в соответствии с выявленными недостатками;

разработана методика развития исследовательских навыков будущих учителей, направленная на определение проблемы, работу с источниками и последовательную организацию сотрудничества с научным руководителем, превращение педагогической ситуации в проверяемый вопрос с помощью SPARK, сопоставление информации и обоснование выводов с помощью TRACE, а также на основе объединения наблюдения за выполнением заданий, обсуждения и обратной связи в единый мини-исследовательский процесс на авторской платформе «Tadqiqotmaktabi.uz»;

обоснована математико-статистическим анализом эффективность научно-методического обеспечения, направленного на развитие исследовательских навыков у будущих учителей, путем определения начальных и конечных показателей по мотивационным, когнитивным, операционно-деятельностным и рефлексивно-оценочным критериям для проверки качества применения знаний в практическом исследовании, сравнения изменений в экспериментальной и контрольной группах.

Практические результаты исследования отражены в следующем:

Издана монография «Развитие исследовательских навыков у будущих учителей: опыт зарубежных стран», обобщающая теоретико-методические

основы развития исследовательских навыков у будущих учителей и зарубежный опыт (ISBN 978-9910-611-77-3);

создана электронная платформа «Tadqiqotmaktabi.uz», предназначенная для организации научно-исследовательской деятельности будущих учителей, мониторинга выполнения заданий, налаживания научного диалога и анализа результатов исследований (№ DGU 56070, 6 ноября 2025 года);

разработан мини-исследовательский цикл, направленный на поэтапное развитие исследовательских навыков у будущих учителей, его методика, основанная на применении методов SPARK в процессе формирования проблемной ситуации и TRACE в процессе анализа научной информации;

